

TIJORAT BANKLARDAGI MUAMMOLI QARZDORLIK (NPL) VA UNING IQTISODIYOTGA TA'SIRI (XATB ORIENT FINANS BANK MISOLIDA)

Ibragimov Olimjon Berdimuratovich

O'zbekiston Respublikasi, Bank-moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston tijorat banklari faoliyatida muammoli kreditlar bilan ishlashning amaldagi holati, ularning vujudga kelish sabablari va bartaraf etish mexanizmlari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida kredit portfeli sifati, qarzdorlik darajasi, qayta moliyalashtirish va restrukturizatsiya jarayonlari o'rganilib, muammoli kreditlarni kamaytirishning samarali yo'llari taklif etilgan.

Kredit operatsiyalarini amalga oshirishda muammoli kreditlarning yuzaga kelishi, ularning buxgalteriya hisobini xalqaro standartlari talablari asosida tartibga solishni zaruriyat qilib qo'ymoqda. Ushbu zaruriyatdan kelib chiqib, tijorat banklarida kreditlar bo'yicha to'lash va ehtimoliy yo'qotishlar zahiralari jarayolari hisobini takomillashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, muammoli qarzdorlik, NPL, kredit riski, moliyaviy barqarorlik, foiz stavkalari, annuitet, differensial, avanslangan foiz

KIRISH

Bugungi kunda xalqaro miqyosda tijorat banklari tomonidan ko'rsatilayotgan xizmat turlarining investitsion jozibadorligini oshirish masalalari bo'yicha ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Tijorat banklarining kapitallashuv darajasini oshirish, ularning barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlash va innovatsion bank mahsulotlarini amaliyotga joriy etish orqali bank xizmatlari samaradorligini oshirish hamda boshqaruv amaliyotini takomillashtirish hozirgi bank faoliyatining asosiy yo'nalishlariga aylangan. Shu bilan birga, bugungi kunda tijorat banklari duch kelayotgan dolzarb muammolardan biri – mijozlarga berilgan kreditlarning o'z vaqtida qaytarilmasligidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son1 Farmoni, 2020-yil 12-maydagi "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-son2 Farmoni hamda 2023-yil 18-avgustdagi "Davlat ishtirokidagi korxonalar va tijorat banklarini isloh qilish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-283-son3 qarorida belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida tegishli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash va uning

investitsion jozibadorligini oshirish uchun, eng avvalo, tijorat banklarining moliyaviy sogʻlomligini mustahkamlash zarur. Ayniqsa, berilgan kreditlarning oʻz vaqtida qaytarilmasligi holatlarining ortib borayotgani bank faoliyatining eng jiddiy muammolaridan biri sifatida namoyon boʻlmoqda. Shu sababli muammoli kreditlarning vujudga kelish omillarini chuqur oʻrganish, kredit risklarini samarali boshqarish tizimini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Muammoli kreditlar (NPL) bank tizimining barqarorligi va iqtisodiy rivojlanish uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu sohada olib borilgan tadqiqotlar koʻplab omillarni, jumladan, kreditlash amaliyoti, iqtisodiy sharoitlar va banklarning operatsion samaradorligini oʻrganadi. Muammoli kreditlar tushunchasi borasida koʻplab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan taʼriflar berilgan boʻlib, ular bu tushunchani kengroq anglashga xizmat qiladi. Maxmudov Rahimjon Hamid oʻgʻli oʻz maqolasida muammoli kreditlarni baholash va aniqlash modellari haqida soʻz yuritadi. U muammoli kreditlarning yuqori darajasi banklarning kapital bazasini yemirishini, likvidligini pasaytirishini va kreditlash imkoniyatlarini yomonlashtirishini taʼkidlaydi. Muammoli kreditlarning paydo boʻlishiga kreditni notoʻgʻri baholash, iqtisodiy tanazzul va qarz oluvchilarni notoʻgʻri boshqarish kabi omillar sabab boʻlishini koʻrsatadi. Jonibek Rustamov muammoli kreditlarning iqtisodiy ahamiyati va bank operatsion samaradorligiga taʼsirini oʻrganadi. U muammoli kreditlar va bank samaradorligi oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlikni tahlil qilib, risklarni boshqarish amaliyotlarini yaxshilash, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash va barqaror iqtisodiy rivojlanishni ragʻbatlantirishda muammoli kreditlarni bartaraf etishning ahamiyatini taʼkidlaydi.

L. Ergasheva (2023). Oʻzbekiston Respublikasida faoliyat olib borayotgan tijorat banklarida kredit monito-ringi va muammoli kreditlar haqida boʻlib, unda bugungi kundagi tijorat banklari kredit portfeli monitoringidagi kamchiliklar, yutuqlar va xorij tajribasini qoʻllashda qaysi jihatlari mamlakatimiz iqtisodiy muhiti uchun munosib ekanligi haqida qisqacha fikr bildirilgan. S. Z. Ravshan oʻgʻli (2023) ishlarida tijorat banklari jalb qilgan mablagʻlarining asosiy qismini kredit berish sifatida foydalanar ekan, bunda faqatgina daromad olish uchun emas, balki mablagʻlarni kredit oluvchidan toʻliq qaytarib olish masalasini oldindan belgilab olishi zarur. Chunki, bank sarmoya egasi sifatida sarmoyani emas, balki sarmoyadan foydalanish huquqini maʼlum bir shart va ustama foizlar asosida maʼlum muddatga sotadi. D. I. Zokirova (2023) ilmiy ishlarida Oʻzbekistonda faoliyat yuritayotgan tijorat banklari va ularning aholiga taklif etayotgan chakana xizmatlari tarkibida mavjud boʻlgan muammoli kreditlar oʻrganilgan, tijorat banklarining muammoli kreditlari statistikasi tahlil eilgan. Ushbu muammoni bartaraf etishda xorij tajribalarini qoʻllash imkoniyatlari keltirilgan hamda takliflar berib oʻtilgan. Xorijiy olimlar tadqiqotlarida muammoli kreditlar darajasiga taʼsir qilishda yalpi ichki

mahsulotning o'sishi, inflyatsiya va ishsizlik darajasi kabi makroiqtisodiy omillarning rolini ta'kidlaydi. Retsessiya yoki iqtisodiy tanazzul muammoli kreditlarning ko'payishiga olib kelishi mumkin (Acharya va boshq., 2019). Adabiyotlarda muammoli kreditlarning asosiy sababi sifatida kredit riskini baholashdagi kamchiliklar ham ta'kidlangan. Zaif kredit anderrayting standartlari va noto'g'ri tekshirish jarayonlari yuqori muammoli kreditga olib kelishi mumkin (Berger va DeYoung, 2001)

METODOLOGIYA

Muammoli kreditlar bilan bog'liq nazariy tushunchalarni to'plash va tahlil qilish uchun adabiyotlarni ko'rib chiqish va kontseptual asos usullaridan foydalanildi. Adabiyotlarni ko'rib chiqish usulida biz muammoli kreditlar bo'yicha mavjud adabiyotlarni keng ko'lamli ko'rib chiqdik, materiallar sifatida ilmiy ishlar, kitoblar va moliya institutlari va nazorat qiluvchi organlarning hisobotlariga asoslandik. Kontseptual asos usulida Biz muammoli kreditlar bo'yicha turli nazariy qarashlarni o'zida mujassam-lashtirgan, iqtisodiy, moliyaviy va me'yoriy o'lchovlarni o'z ichiga olgan kontseptual asosni ishlab chiqdik.

TAHLIL VA NATIJA

Tijorat banklari tomonidan kredit ajratilganidan keyin qarzdorning faoliyatini doimiy monitoring qilish orqali risklarni boshqaradi. Monitoring doirasida kredit bo'yicha to'lovlar muddati, qarzdorlik dinamikasi, garov obyektining qiymati va qarz oluvchining umumiy moliyaviy holati nazorat qilinadi. Kredit bo'yicha kechikish xavfi paydo bo'lishi bilanoq banklar mijoz bilan individual ishlashni boshlaydi. Bu yondashuv o'z vaqtida kredit qaytarilishini ta'minlashda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Tijorat banklari muammoli kreditlar bilan ishlash uchun alohida bo'lim tashkil etadi yoki mutaxassislarni jalb etadi. Ushbu tarkibiy tuzilmalar kredit restrukturizatsiyasi, kelishuv asosida qayta jadval tuzish va zarur hollarda sudgacha yoki sud orqali qarzdorlikni undirib olish bo'yicha huquqiy chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Tijorat banklari qarzdorlikning kechikishiga yo'l qo'ymaslik uchun proaktiv (oldini oluvchi) boshqaruvni yo'lga qo'yib, mijoz bilan ishonchli va hamkorlik asosidagi aloqalarni rivojlantirish orqali moliyaviy risklarni kamaytirish va kredit portfeli sifatini oshirishga intilmoqda.

**Tijorat banklarining muammoli kreditlari (NPL) to'g'risida
2025-yil 1-may holatiga ma'lumot**

mlrd. so'm

№	Bank nomi	Kreditlar	Muammoli kreditlar (NPL)	Muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi
Jami		565 568	23 650	4,2%
Davlat ulushi mavjud banklar		389 075	15 992	4,1%
1	O'zmilliybank	110 413	3 316	3,0%
2	O'zsanoatqurilishbank	69 352	2 692	3,9%
3	Agrobank	68 683	2 898	4,2%
4	Asaka bank	40 373	1 923	4,8%
5	Xalq banki	29 861	1 206	4,0%
6	Biznesni rivojlantirish banki	23 556	1 861	7,9%
7	Mikrokreditbank	19 477	1 282	6,6%
8	Aloqa bank	14 375	392	2,7%
9	Turon bank	12 986	422	3,3%
Boshqa banklar		176 493	7 658	4,3%
10	Ipoteka-bank	35 376	3 448	9,7%
11	Kapital bank	32 538	1 757	5,4%
12	Hamkorbank	19 996	300	1,5%
13	Ipak yo'li bank	14 994	220	1,5%
14	Orient Finance bank	12 958	252	1,9%
15	Tibisi bank	9 753	341	3,5%
16	Invest Finance bank	8 441	190	2,3%
17	Anor bank	8 051	231	2,9%
18	Davr bank	7 622	211	2,8%
19	Trastbank	6 411	230	3,6%
20	Tenge bank	4 023	92	2,3%
21	Asia Alliance bank	3 942	41	1,0%
22	KDB Bank O'zbekiston	3 566	0	0,0%
23	Hayot bank	2 116	12	0,6%
24	Ziraat Bank Uzbekistan	2 036	63	3,1%
25	Universal bank	1 746	16	0,9%
26	Garant bank	734	164	22,4%
27	AVO bank	458	58	12,7%

28	Oktobank	405	0	0,0%
29	Madad Invest bank	391	22	5,5%
30	Poytaxt bank	354	0	0,0%
31	Apeks bank	277	0	0,0%
32	Uzum bank	120	0	0,0%
33	Yangi bank	106	10	9,1%
34	Smart bank	61	0	0,0%
35	Eron Soderot bankining ShB	19	1	6,0%
36	Yevroosiyo banki	0	0	

Manba: Markaziy bank uz.

Bu jadval natijalaridan ko'rinib turiptiki Orient Finance bank 252mlrd muammoli krediti bo'lib, foizda 1.9%ni tashkil qiladi. Davlat ulushi mavjud banklar O'zmilliybank 3 316 mlrd so'm, foizda 3.0%ni tashkil qiladi.

TAKLIF

Respublikamiz tijorat banklarida muammoli kreditlarning salbiy oqibatlarini kamaytirish va samaradorligini ta'minlash maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur:

Kreditlash jarayonida yuzaga keladigan risklar darajasini pasaytirish uchun, avvalo, mahsulotlarga bo'lgan talabni aniqlik bilan prognozlash orqali marketing tadqiqotlarining sifatini oshirish lozim. Shuningdek, kredit oluvchining obro'siga ta'sir etuvchi omillarni aniqlab, ularning ta'sir darajasiga baho berish muhimdir. Kredit ajratilishidan avval mijozning moliyaviy holatini chuqur tahlil qilish, qarzni qaytarish salohiyatini belgilovchi indikatorlarni baholash orqali risklarni oldindan aniqlash mumkin.

1. Kredit tahlili va monitoringi jarayonlarining raqamli transformatsiyasi
2. Muammoli aktivlarni boshqaruvchi maxsus agentlikni tashkil etish
3. Qarzdorlikni sudgacha va sud tartibida undirish mexanizmlarini takomillashtirish
4. Stress-testlash va erta ogohlantirish tizimini rivojlantirish
5. Shaffoflikni oshirish va bank tahliliy salohiyatini kengaytirish.

Kredit risklarini baholashda sun'iy intellekt (AI) va mashinaviy o'rganish (ML) texnologiyalarini, kredit tarixlari reyestrlari, soliq ma'lumotlar bazalari va alternativ axborot manbalari bilan integratsiya asosida, kengroq qo'llash zarur. Regulyator nazorati ostida yagona scoring platformasining ishlab chiqilishi kredit qarorlarining obyektivligini oshiradi hamda muammoli kreditlar hajmini ularning shakllanish bosqichidayoq kamaytirishga xizmat qiladi. Muammoli aktivlarni, ayniqsa yirik korporativ qarzlar bo'yicha, konsolidatsiya qilish, qayta tuzish va realizatsiya qilishga qaratilgan milliy tashkilot (Asset Management Company tipidagi)ni tashkil etish

tavsiya etiladi. Ushbu yondashuv tizimli ahamiyatga ega banklar balansidagi yukni kamaytiradi va risklarning iqtisodiyotning boshqa segmentlariga tarqalishining oldini oladi.

XULOSA

O'zbekiston tijorat banklarida muammoli kreditlar tizimining mustahkamligi va barqarorligiga tahdid solishi mumkin. Shuning uchun banklar uchun muammoli kreditlarni aniqlash, tahlil qilish va ularni samarali boshqarish muhim ahamiyatga ega. Banklar tomonidan qo'llaniladigan zamonaviy usullar va davlat tomonidan ko'rsatiladigan qo'llab-quvvatlash, shu bilan birga, kredit risklarini boshqarish strategiyalari O'zbekistonning moliyaviy tizimini barqarorlashtirishga yordam beradi. Banklar va qarz oluvchilar o'rtasida o'zaro ishonch va to'liq hamkorlik asosida muammoli kreditlarning kamayishi va ularni bartaraf etish samarali amalga oshirilishi mumkin.

Muammoli kreditlar darajasi bank moliyaviy barqarorligiga kuchli va bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ushbu ta'sir kapital yetarliligi, rentabellik va likvidlik ko'rsatkichlari orqali namoyon bo'ladi. Muammoli kreditlar ulushining oshishi barqarorlikni zaiflashtiradi. Shu bois kredit risklarini samarali boshqarish banklar uchun ustuvor vazifa bo'lib qolmoqda. Muammoli kreditlarni kamaytirish bank tizimi barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu esa iqtisodiy rivojlanish uchun muhim moliyaviy asos yaratadi. Umuman olganda, muammoli kreditlar darajasini baholash va uni moliyaviy barqarorlik bilan bog'liq holda tahlil qilish bank faoliyatini takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega. Banklar tomonidan puxta kredit siyosati yuritilishi va risklarni boshqarish mexanizmlarining kuchaytirilishi zarur. Bu jarayon bank tizimi barqarorligini uzoq muddatli istiqbolda ta'minlash imkonini beradi. Muammoli kreditlar darajasining pasayishi banklarning moliyaviy holatini yaxshilaydi. Natijada moliya tizimining ishonchlilik ortadi. Ushbu tezis bank moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha ilmiy-amaliy xulosalar chiqarishga xizmat qiladi.

Muammoli kreditlar darajasini kamaytirishda bank ichki boshqaruv tizimining roli katta. Risklarni boshqarish, ichki audit va nazorat tizimlari samarali ishlashi zarur. Bank xodimlarining malakasi kredit risklarini to'g'ri baholashda muhim omil hisoblanadi. Kreditlash jarayonida ehtiyotkorlik tamoyiliga amal qilish muammoli kreditlar paydo bo'lishini cheklaydi. Bu bankning moliyaviy natijalarini yaxshilaydi. Natijada barqaror rivojlanish uchun zamin yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF–60-son Farmoni: <https://lex.uz/ru/docs/-58410632>.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi «2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida»gi PF–5992-son Farmoni: <https://lex.uz/docs/-4811025>

3. Otabek, Arzikulov, and To'ychiyev Dilshod. "Tijorat banklarining kredit portfelini boshqarish yo'llari." *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research* (2023): 158–167.

4. Norov, A., Shaxiddinonov, S., & Norova, N. (2023). Tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlar risklarini kamaytirish mexanizmlari. Tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlar risklarini kamaytirish mexanizmlari. Prioritetnie napravleniya, sovremennye tendentsii i perspektivi razvitiya finansovogo rinka, 134–135.

5. Bekjon Bo'ron o'gli, N. (2023). Tijorat banklari faoliyatida muammoli kreditlar va ularning tahlili. *Gospodarka i Innovatsie*, 340–346.

6. Olqarova, Z., & Boyev, B. (2022). Tijorat banklarining muammoli kreditlar bilan ishlashi va ularni takomillashtirish mas'alalari. So'ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi, 5(5), 56–65.5. Ergasheva, L. (2023). Muammoli kreditlar va uni monitoring qilish tartibi. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(5), 299–302.

7. Mamadiyarov Z. (2020). Тижорат банкларида муаммоли кредитларнинг вужудга келиш сабаблари ва уларни камайтириш йўллари. *Архив научных исследований*, (26).